



INTEGRATION OF NATIONAL METHODOLOGICAL APPROACHES TO FUTURE LEARNING SKILLS IN PRESCHOOL EDUCATION

Aliyeva Iroda Otabek qizi

Institute for retraining and professional development of directors and
specialists of pre-school educational organizations
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14752272>

ARTICLE INFO

Received: 22nd January 2025

Accepted: 27th January 2025

Online: 28th January 2025

KEYWORDS

Future educational skills, IQ (Intellectual ability), EQ (Emotional intelligence), DQ (Digital Intelligence), national methodical approach, humanitarian principle, innovation synthesis, national values.

ABSTRACT

This article discusses the integration of national methodical approaches to future educational skills in preschool education.

ИНТЕГРАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ МЕТОДИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ К УЧЕБНЫМ НАВЫКАМ БУДУЩЕГО В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Алиева Ирода Отабек кизи

Институт переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов
дошкольных образовательных организаций
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14752272>

ARTICLE INFO

Received: 22nd January 2025

Accepted: 27th January 2025

Online: 28th January 2025

KEYWORDS

Будущие образовательные навыки, IQ (интеллектуальные способности), EQ (эмоциональный интеллект), DQ (цифровой интеллект), национальный методический подход, гуманитарный принцип, синтез инноваций, национальные ценности.

ABSTRACT

В данной статье рассматривается интеграция отечественных методических подходов к формированию будущих образовательных умений в дошкольном образовании.



**MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY METODIK YONDASHUVLARNING
KELAJAK TA'LIM KO'NIKMALARIGA INTEGRATSIYASI**

Aliyeva Iroda Otabek qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14752272>

ARTICLE INFO

Received: 22nd January 2025

Accepted: 27th January 2025

Online: 28th January 2025

KEYWORDS

Kelajakdagi ta'lim ko'nikmalari, IQ (Intellektual qobiliyat), EQ (Hissiy intellekt), DQ (Raqamli Intellekt), milliy metodik yondashuv, insonparvarlik tamoyili, innovatsiyalar sintezi, milliy qadriyatlar

ABSTRACT

Mazkur maqolada maktabgacha ta'limda milliy metodik yondashuvlarning kelajak ta'lim ko'nikmalariga integratsiyasi haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi bolalarni intellektual, ijtimoiy-emotsional va texnologik jihatdan har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion yondashuvlarni talab etmoqda. Dunyo miqyosida maktabgacha ta'limni takomillashtirishga qaratilgan turli model va metodikalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning har biri bolaning shaxsiy xususiyatlari, ta'lim muhitining o'ziga xosligi va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllantirilgan. Shunday ekan, xorijiy ta'lim tajribalarini milliy maktabgacha ta'lim tizimiga moslashtirish orqali innovatsion metodikalarni yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yuhyun Parkning tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, "maktabgacha ta'lim metodikasini takomillashtirishda intellektual qobiliyat, hissiy intellekt va raqamli intellekt elementlarini uyg'un ravishda qo'llash bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi"¹.

Bu yondashuv nafaqat bolalar uchun intellektual rivojlanishni ta'minlash, balki ularning hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini ham shakllantirishga yordam beradi. intellektual qobiliyat bolalarning bilim olish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirsa, hissiy intellekt ularning o'zini anglash, boshqalar bilan o'zaro munosabatlar qurish va hissiy holatlarni boshqarish ko'nikmalarini o'stiradi. Raqamli intellekt esa bolalarni zamonaviy raqamli dunyoga tayyorlashga xizmat qiladi, ularni raqamli texnologiyalarni samarali ishlatish va ulardan kreativ tarzda foydalanishga o'rgatadi.

OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) hamkorlik doirasida O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga oid turli tadqiqotlar va tahlillar o'tkazilmoqda. Shuningdek, tashkilot O'zbekistonda ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirish

¹ Park, Y. (2021). Digital Intelligence: The Key to a Safer and Smarter Future for Children. DQ Institute.



bo'yicha hamkorlikni kengaytirish, raqamli intellekt kabi zamonaviy ko'nikmalarni yosh avlodga o'rgatish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Bu orqali bolalar rivojlanishini yaxshilash va ularni raqamli dunyoga tayyorlashga qaratilgan metodologiyalar ishlab chiqilmoqda².

KOICA (Koreya Xalqaro Hamkorlik Agentligi) maktabgacha ta'lim sohasida kelajakdagi ta'lim va ko'nikmalarni rivojlantirishga oid bir qancha tadqiqotlar va loyihalar amalga oshiradi. Tashkilot, rivojlanayotgan mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimlarini yaxshilash, o'qituvchilarni tayyorlash va yoshlarning muhim ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

KOICA maktabgacha ta'limning sifatini oshirishga qaratilgan bir qator loyihalarni amalga oshiradi. Ushbu loyihalar doirasida ta'lim metodologiyalarini yangilash, o'qituvchilarni malakasini oshirish, o'quvchilarga sifatli va interaktiv o'qish materiallarini taqdim etish kabi ishlar olib boriladi. KOICA ta'lim jarayonini bolaning rivojlanishiga moslashtirish va sifatli ta'limni barcha bolalarga taqdim etish maqsadida turli metodik yondoshuvlarni ishlab chiqadi.

Raqamli dunyo va zamonaviy texnologiyalarni hisobga olgan holda, bolalarga raqamli ko'nikmalarni maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlashga intiladi. KOICAning tadqiqotlari bolalar uchun raqamli vositalar, interaktiv o'yinlar, va raqamli ta'lim materiallaridan qanday samarali foydalanish mumkinligini o'rganish bilan bog'liq. Bu orqali bolalar, erkin va innovatsion tarzda raqamli dunyoga tayyorlanadi va ularning raqamli intellekti rivojlanadi.

KOICA ning maktabgacha ta'limdagi tadqiqotlari, bolalar uchun ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu ko'nikmalar, bolalarning o'zaro munosabatlari, o'zini anglash, jamoada ishlash va boshqa hissiy intellekt jihatlarini o'z ichiga oladi. Bolalar uchun ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishni, ularga yaxshi hissiy va ijtimoiy adaptatsiyani ta'minlashda muhim rol o'ynashini tushunadi³.


O'zbekistonda OECD va KOICA kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan tadqiqotlar va loyihalar, ushbu yondoshuvlarni milliy ta'lim tizimiga transformatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi. OECD O'zbekiston bilan hamkorlikda raqamli intellekt kabi zamonaviy ko'nikmalarni yosh avlodga o'rgatish bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgani, bu mamlakatning ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etishga qaratilgan metodologiyalarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi. KOICA esa maktabgacha ta'limda sifatni oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda va pedagoglarning malakasini oshirish, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish hamda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni o'rgatish orqali bolalar uchun har tomonlama rivojlanish imkoniyatlarini yaratishni maqsad qilgan.

Xorij tajribasi, ayniqsa, raqamli ta'lim yondoshuvlarini maktabgacha ta'lim tizimlariga integratsiya qilishda milliy metodik yondoshuvlarga moslashtirish juda muhimdir. Bu jarayon, bolalarni har tomonlama rivojlantirishga imkon beruvchi yondoshuvlarni joriy etish, ularning intellektual, hissiy va raqamli ko'nikmalarini integratsiyalash orqali amalga oshirilishi kerak. Ushbu metodologiyalar nafaqat bolalarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, balki ularni jamiyatda muvaffaqiyatli va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

² <https://www.oecd.org/>

³ https://www.koica.go.kr/sites/koica_kr/index.do

Maktabgacha ta'limda metodik yondashuvlarni rivojlantirishda kelajakdagi ta'lim va ko'nikmalarini nazariy ahamiyatini tahlil qilganimizda (1-rasm), bu yondashuvlar nafaqat bolalarning intellektual rivojlanishini, balki ularning hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini ham shakllantirishga qaratilgan. Zamonaviy pedagogika, bolalarning kompleks rivojlanishini ta'minlash uchun kelajakdagi ta'lim va ko'nikmalarni uyg'un ravishda birlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu metodik yondashuvlar, bolalarga faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularning turli ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion va integratsiyalashgan faoliyatlarni tashkil etishga imkon yaratadi.



1-rasm. Kelajakdagi ta'lim ko'nikmalari


IQ (Intellektual qobiliyat) - Bolalarning mantiqiy tafakkurini va analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun matematik o'yinlar, mantiqiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlarni hal qilish faoliyatlari o'tkaziladi. Intellektual qobiliyatni rivojlantirish metodikasi, bolalarga akademik asoslarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki bu bolalarning bilimga bo'lgan qiziqishini va mustahkam bilim bazasini yaratishga yordam beradi.

EQ (Hissiy intellekt) - Bolalarning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish ko'nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ijodiy faoliyatlar, jamoaviy o'yinlar va hissiy adaptatsiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Hissiy intellektni rivojlantirish metodikasi bolalarga o'zaro munosabatlar, hissiy holatlarni boshqarish va jamoada ishlash ko'nikmalarini o'rgatadi, bu esa ularga ijtimoiy moslashishni va hissiy barqarorlikni ta'minlashda yordam beradi.

DQ (Raqamli Intellekt) - Bolalarga zamonaviy texnologiyalarni xavfsiz va samarali foydalanishni o'rgatish orqali rivojlanadi. Bu ko'nikmalar bolalarga raqamli resurslardan foydalanishni, onlayn xavfsizlikni tushunishni va texnologiyalarni ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashni o'rgatadi. Raqamli intellektni rivojlantirish metodikasi, bolalarning raqamli intellektini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, interaktiv o'yinlar, raqamli ta'lim materiallari va texnologik vositalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Milliy metodik yondashuvlar – maktabgacha ta'lim tizimida o'qitish va tarbiya berish jarayonini milliy qadriyatlar, an'analar, pedagogik meros va zamonaviy innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda tashkil etish usullaridir. Ushbu yondashuvlar bolalarning intellektual, hissiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash maqsadida maxsus ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar, metodlar va o'qitish strategiyalarini o'z ichiga oladi.

Milliy metodik yondashuvlar maktabgacha ta'limda bolalarni har tomonlama rivojlantirishda muhim muhim o'rin tutadi. Ular milliy madaniyat, qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalarni uyg'unlashtirish orqali bolaning intellektual, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimini kelajak ta'lim talablariga mos ravishda transformatsiya qilish muhim masala bo'lib, bu jarayon zamonaviy ilmiy-pedagogik yondashuvlarga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz. Quyida maktabgacha ta'limda milliy metodik yondashuvlarning kelajak ta'lim ko'nikmalariga integratsiyasini (2-rasm) taqdim etamiz.



2-rasm. Maktabgacha ta'limda milliy metodik yondashuvlarning kelajak ta'lim ko'nikmalariga integratsiyasi

Maktabgacha ta'limda milliy metodik yondashuvlarning kelajak ta'lim ko'nikmalariga integratsiyasi, pedagoglarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan muhim jarayondir. Ushbu integratsiya jarayoni metodologik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi, bir nechta asosiy tamoyillarga asoslanishi va zamonaviy ta'lim ko'nikmalarini muvaffaqiyatli o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Quyidagi elementlar asosida metodologik jihatdan to'g'ri integratsiya jarayonini ko'rib chiqamiz:

Insonparvarlik tamoyili ta'limda bolalar, pedagoglar va boshqa ta'lim tarbiya ishtirokchilarning huquqlarini, erkinliklarini hurmat qilishni anglatadi. Maktabgacha ta'limda milliy metodik yondashuvlar va kelajak ta'lim ko'nikmalarini integratsiya qilishda, bolaning insoniy qadriyatlari, huquqlari va ehtiyojlarini inobatga olish lozim. Insonparvarlik tamoyili ta'lim jarayonida bola shaxsiyati va uning ehtiyojlariga mos yondashishni ta'minlaydi, bu esa uning ijtimoiy va hissiy intellektini rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda bolaning o'zini anglash va shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim - tarbiya metodlari qo'llanilishi kerak. Shuningdek, jamoaviy o'yinlar, guruh ishlari orqali bolalar o'zaro hamkorlikda ishlashga o'rgatiladi, bu esa ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi.



Innovatsiyalar sintezi — yangi g'oyalar va metodlarni, ilg'or pedagogik yondashuvlarni birlashtirish jarayonidir. Maktabgacha ta'limda innovatsiyalar sintezi milliy va global pedagogik metodlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydi. Bu jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (raqamli vositalar, interaktiv o'yinlar)ni milliy metodikalar bilan uyg'unlashtirish zarur. Bundan tashqari onlayn platformalar, multimedia vositalari, va innovatsion o'qitish metodlari yordamida bolalarda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish mumkin.

Milliy qadriyatlar "bolalarni o'z madaniyatiga hurmat bilan qarashga va uni boshqalarga tushuntirishga o'rgatadi. Milliy qadriyatlar, o'z navbatida, bolalarda hissiy intellektni (EQ) rivojlantirishga yordam beradi, chunki ular o'z madaniyatiga, oilasiga va jamiyatiga nisbatan yuqori hurmatni o'zlashtiradilar"⁴. Ta'lim - tarbiya jarayonida milliy o'yinlar, ertaklar, xalq an'analari va bayramlar yordamida bolalar bilan ishlash. Milliy tarixiy qadriyatlar orqali bola ma'naviyatini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni qadrlashga o'rgatish.

IQ, EQ va DQ (Kelajakdagi ta'lim ko'nikmalari) bolalarning muhim ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'limda bu uchta jihatni birlashtirish, bolalarga har tomonlama rivojlanish imkoniyatini beradi. Mazkur integratsiya jarayoni:

IQ: Raqamli vositalar va interaktiv o'yinlar yordamida bolalarda mantiqiy fikrlash va masalalarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.

EQ: Guruh ishlarida bolalarni hamkorlikda ishlashga o'rgatish, his-tuyg'ularini boshqarish va boshqalarga hurmat ko'rsatishni o'rgatish.

DQ: Raqamli texnologiyalar va interaktiv o'yinlar orqali bolalarda raqamli ko'nikmalarni shakllantirish. Shu bilan birga, bolalar raqamli dunyoda axborotlarni to'g'ri qabul qilish va qayta ishlashga o'rgatiladi.

Tarixiy qadriyatlar bolalarga o'z tarixini va madaniyatini o'rganish orqali identifikatsiya qilish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy mas'uliyatni, hamkorlikda ishlashni va o'zaro hurmatni rivojlantiradi. Bu ta'lim -tarbiya jarayonida tarixiy qadriyatlar va milliy madaniyatni o'rgatish uchun didaktik materiallar, kitoblar va vizual vositalardan foydalanishni hamda bolalarda tarixiy tajribalarni o'rganish orqali o'zligini anglash va jamiyatga oid ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi.

Bolaning xar tomonlama rivojlanishi — bu uning intellektual, hissiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishining muvozanatli bo'lishidir. Maktabgacha ta'lim jarayonida, milliy va global metodikalarni uyg'unlashtirib, bolalarda barcha rivojlanish sohalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga erishish mumkin.

Buning uchun, jismoniy faollik va o'yinlar yordamida bolaning motor ko'nikmalarini rivojlantirish, tabiat, san'at va ijtimoiy faoliyatlar orqali bolalarda kreativlik va hissiy intellektni oshirish va ta'lim - tarbiya jarayonini diversifikatsiya qilish, har bir bolaning individual xususiyatlariga moslashtirish lozim.

Maktabgacha ta'limda milliy metodik yondashuvlarning kelajak ta'lim ko'nikmalariga integratsiyasi jarayonida insonparvarlik tamoyilini asos qilib olish, innovatsiyalar sintezini amalga oshirish, milliy qadriyatlar va tarixiy an'analarga hurmatni rivojlantirish, hamda IQ,

⁴ Abdusalomovich E. K., Nuriddinova Q. S. Improving the National System Focused on Spiritual and General Human Values //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 23-26.



EQ va DQ ko'nikmalarini uyg'unlashtirish orqali bolaning xar tomonlama rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu jarayon pedagogik metodlarni, zamonaviy texnologiyalarni va milliy qadriyatlarni muvaffaqiyatli birlashtirgan holda, bolalarga 21-asr ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

References:

1. Park, Y. (2021). Digital Intelligence: The Key to a Safer and Smarter Future for Children. DQ Institute.
2. Abdusalomovich E. K., Nuriddinovna Q. S. Improving the National System Focused on Spiritual and General Human Values //Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521). – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 23-26.
3. <https://www.oecd.org>.
4. https://www.koica.go.kr/sites/koica_kr/index.do.